BAG‘RIKENGLIK SHUKRONALIKKA XOS FAZILAT

M.T.Voxidova
Buxoro davlat texnika universiteti-“Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat” kafedrasi dotsenti
Abduraximova Shaxzoda
Buxoro davlat texnika universiteti-108-25 MSU guruhi talabasi

Received: 28.11.2025
Revised: 29.11.2025
Accepted: 01.12.2025
Kalit so‘zlar: Bag‘rikenglik, shukronalik, shukr, ma’naviyat, axloq, insonparvarlik, kechirimlilik, murasalilik, islomiy qadriyatlar, fazilat, komillik.
Ключевые слова: терпимость, благодарность, духовность, нравственность, человечность, снисходительность, миролюбие, исламские ценности, добродетель, совершенствование личности.
Keywords: tolerance, gratitude, spirituality, morality, humanity, leniency, peacefulness, Islamic values, virtue, personal development.

Annotatsiya. Ushbu maqolada bag‘rikenglik va shukronalik fazilatlarining o‘zaro bog‘liqligi ma’naviy-axloqiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Maqolada shukr va bag‘rikenglikning islomiy manbalardagi o‘rni, ularning shaxsiy kamolot va jamiyat totuvligiga ko‘rsatayotgan ijobiy ta’siri ilmiy-tarbiyaviy jihatdan tahlil qilingan.

Аннотация. В данной статье рассматривается духовно-нравственная взаимосвязь между такими качествами, как терпимость и благодарность. В статье раскрывается значение этих добродетелей в исламских источниках, а также их влияние на личностное совершенствование, формирование мягкосердечия и укрепление общественной гармонии.

Annotation. This article examines the spiritual and moral interconnection between qualities such as tolerance and gratitude. The significance of these virtues in Islamic sources is explored, as well as their impact on personal development, the cultivation of compassion, and the strengthening of social harmony.

Bag‘rikenglik insoniy fazilatlar ichida eng oliysi hisoblanadi. U odamlarning bir-biriga nisbatan hurmat, muruvvat va kechirimlilik ruhida yashashini ta’minlaydi.

Bag‘rikeng inson hayotga, atrofdagilarga shukronalik bilan qaraydi, chunki shukronalik bor joyda adovat, kibr va yovuzlikka o‘rin qolmaydi. Shu ma’noda, bag‘rikenglik shukronalikdan oziqlanadigan, undan quvvat oladigan ruhiy fazilatdir. Bag‘rikenglik va shukronalik bu insonlarga xos bo‘lgan fazilatdir. Tinchlik-osoyishtalik, erkin va faravon hayotga shukrona keltirish, uning qadriga yetish hayotimizning ma’no mazmuni, xayru barakani yanada ziyoda qiladi.

Bag‘rikenglik - bu boshqa insonlarning fikri, e’tiqodi, tili va madaniyatiga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, xatolarni kechirishga tayyor turish, nafratga yemas, muhabbat va yaxshi niyatga asoslanish va inson qadrini eng oliy ne’mat, deb bilish demakdir.

Bunday fazilatga ega insonlar jamiyatda tinchlik va totuvlikning asosiy tayanchidir.

Shukronalik - insonning borigidan rozi bo‘lish, hayotdagi har bir ne’matning qadriga yetish va uning uchun minnatdorlik bildirishidir. Shukronalikka odatlangan odam dildan xotirjam bo‘ladi, boshqalarga yaxshilik qilishga moyil bo‘ladi, kibr va hasaddan yiroq turadi, muomalada muloyim va bag‘rikeng bo‘ladi.

Shukronalik inson qalbining eng kuchli va toza his-tuyg‘ularidan biri bo‘lib, u ichki ruhiy poklik va barqarorlikni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Qalbdagi salbiy his-tuyg‘ular - g‘azab, hasad, norozilik va bezovtalik - ko‘pincha insonni ruhiy jihatdan charchatadi va uning ichki dunyosini ifloslaydi. Shu bois, shukronalik hissi bu salbiy his-tuyg‘ularni yuvib yuboradi, insonni ichki tinchlik, ruhiy yengillik va ma’naviy uyg‘unlikka olib keladi.

Bundan tashqari, shukronalik nafaqat ruhiy holatni yaxshilaydi, balki insonning ijtimoiy munosabatlarini ham boyitadi. Bag‘rikenglik, kechirimlilik va mehr-oqibat hissi aynan shukronalikdan kuch oladi. Inson o‘z hayotidagi har bir yaxshilik, yordam va qulaylikni qadrlashni o‘rgangan sayin, u boshqalarga nisbatan ham mehribon va bag‘rikeng bo‘lib boradi. Shu tariqa, shukronalik hissi nafaqat shaxsning ruhiy pokligini oshiradi, balki uning ijtimoiy xulq-atvorini ham ijobiy tomonga o‘zgartiradi.

Shuningdek, shukronalik insonni hayotdagi murakkab vaziyatlarga bardoshli qilishga yordam beradi. Qiyinchiliklar va sinovlar oldida shukronalikni saqlash, insonning ruhiy barqarorligini mustahkamlaydi va unga hayotiy muammolarni sabr bilan yengib o‘tish imkonini beradi. Shu bois, bag‘rikenglik, mehr-oqibat va ruhiy poklikning shakllanishida shukronalikning roli beqiyosdir.

Insonga Olloh tomonidan turli fazilatlar in’om etilgan. Bag‘rikenglik va shukronalik ana shu fazilatlardan biri hisoblanadi. Bag‘rikeng insondagina shukronalik bo‘ladi Bag‘rikenglik so‘zining ma’nolari juda ko‘p. Bag‘rikenglik - do‘stlik, birovning boshiga kulfat tushganda dardiga hamdard bo‘lish, shirinso‘zlik, mehr – oqibatli bo‘lish, qariyalar va qarovsiz kishilarni holidan xabar olish, yetim - yesirlarning boshini silash, nogiron bechoralarni o‘ksik ko‘nglini ko‘tarish, ularga saxovat ko‘rsatish, mehmondo‘stlik, hayotidan minnatdor bo‘lish, ruhiy va qalban

poklik tushunchalarini o‘zida mujassamlashtirgan Olloh tomonidan berilgan oliy fazilatdir. Bu ikkala fazilat faqatgina inson zotiga xos xususiyatdir. Odamzod dunyoga kelgandan u tabiat va odamlar orasida ulg‘ayib boradi, unda turli yaxshi va yomon fazilatlar shakllana boradi. Bu fazilatlarning shakllanishi u yashab turgan atrof muhitga, odamlarga ham bog‘liq. Yangi dunyoga kelgan bolaning atrofdagilarga beg‘uborlik bilan boqishi, insonlardan shirinso‘z eshitish uchun intilishi, kattalarda ham beg‘uborlik paydo qiladi. Ularning ham g‘am tashvishlari biroz bo‘lsa tarqab ketadi va yuraklarida yengillik paydo bo‘ladi. Farzandini bag‘riga olgan ona yurakdan shunchalar quvonadiki, butun olam go‘zal bo‘lib ko‘rinadi. Bu go‘zallikni bir tasavvur qilib ko‘ring, haqiqatan ham butun olam yorishib ketgandek bo‘ladi, onani esa bag‘ri to‘ladi va atrofiga, odamlarga go‘zal chehra bilan karaydi. Farzandining yorug‘ kelajagini go‘zal olamda tassavur qilib mehnat qiladi. Uni oq yuvib, oq taraydi. Unga yaxshi tarbiya va bilim berishga harakat qiladi.

Ota-ona har bir farzandidan nafaqat aqliy va ma’naviy yuksaklikni kutadi, balki uning odob-axloq, ijtimoiy munosabatlar va xulq-atvorini ham doimo kuzatib boradi. U bola o‘qimishli bo‘lishini, ilm olishga intilishini, har bir vaziyatda aqlli qarorlar qabul qilishini xohlaydi. Shu bilan birga, ota-ona bolasi kattalarni hurmat qiladigan, kichiklarni e’zozlaydigan, jamiyatda mehr-oqibat va samimiylik ko‘rsatadigan shaxs bo‘lishini orzu qiladi. Bola haqida atrofdagilar doim yaxshi gaplar eshitishni xohlash, uning obro‘si va shaxsiy fazilatlarini oshirish ota-onaning tabiiy istagidir.

Shuningdek, ota-ona o‘z bolalaridan insoniy fazilatlarni rivojlantirishni kutadi: buni amalga oshirish orqali bola boshqalarga yordam beradigan, ularning hojatini o‘ylaydigan, mehr ko‘rsatadigan shaxsga aylanishi lozim. Odamlar bilan muloqotda u o‘zining xulqi, odobi va muloyim so‘zlari bilan boshqalarning e’tiborini va mehrini qozonishi kerak. Chunki insonning so‘zi, odobi va axloqi uning jamiyatdagi obro‘si va insonlar bilan munosabatlarini belgilovchi eng muhim vositalardir.

Bundan tashqari, berilgan ne’matlarga chin dildan shukronalik bildirish har bir insonga xos bo‘lishi zarur. Shukronalik hissi bola qalbida fazilatli, xayrli, pok niyatli va mehribon shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi. U insonni ichki poklik, e’tibor va hurmatga ega bo‘lishga, atrofdagilarga yordam qo‘lini cho‘zishga va hayotdagi barcha yaxshiliklarni qadrlashga o‘rgatadi. Shu tariqa, ota-ona istagan fazilatlar - aqlli, bilimli, odobli, hurmatli va shukrli bola - bolaning o‘zida shakllanadi va u jamiyatda ijobiy iz qoldiradi.

Imom G‘azzoliy o‘zining mashhur asari “Ihyo’ ‘Ulumid-din”da shukrni nafaqat qalb bilan his qilish, balki til va amaliyot orqali ifodalash kerak bo‘lgan ibodat sifatida ta’riflaydi. U shuni ta’kidlaydiki, shukr - bu insonning olgan ne’matni berilgan manbaga bog‘lab, uning haqqini ado etishidir. Ya’ni har bir ne’mat, har bir imkoniyat Alloh tomonidan insonga ato etilgan bo‘lib, ularni nohaq ishlarga sarflash emas, balki o‘z maqbul yo‘lida foydalanish haqiqiy shukr hisoblanadi.

Imom G‘azzoliy shuningdek, shukronalikni amalda ko‘rsatadigan eng munosib inson - bu aql va imon ne’matlariga ega shaxs ekanligini ta’kidlaydi. Aql insonni

to‘g‘ri fikrlashga, oqilona qarorlar qabul qilishga, imon esa qalbni poklashga va ma’naviy barkamollikka yetaklaydi. Shu tariqa, haqiqiy shukr insonni ruhiy va axloqiy kamolot sari yetaklovchi kuchga aylanadi.

Shukronalik, shuningdek, insonning hayotdagi qarorlariga ham ta’sir qiladi. Haqiqiy shukrni anglashi bilan inson o‘zini nafaqat Alloh ne’matlarini qadrlashga, balki ularni jamiyat va atrofdagi insonlar manfaati yo‘lida oqilona ishlatishga yo‘naltiradi. Bu esa shaxsni faqat o‘z manfaatlarini emas, balki boshqalarning ham farovonligi va baxti uchun harakat qiladigan insonga aylantiradi.

Bugungi kunda esa mamlakatimizning kuch-qudrati, uning barqarorligi va taraqqiyoti nafaqat iqtisodiy va siyosiy omillarga, balki yoshlarimizning ma’naviy kamolotiga bevosita bog‘liqdir. Ma’naviy jihatdan barkamol, axloqiy yetuk va shukrli shaxslar jamiyatning ijtimoiy va madaniy hayotini boyitadi, mehnat va ilm-fan sohalarida yuqori natijalarga erishishga yordam beradi, shuningdek, milliy qadriyatlarimizni saqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, yoshlarni tarbiyalash va ularning qalbida shukronalik, bag‘rikenglik va axloqiy kamolotni shakllantirish har bir oila, ta’lim muassasasi va jamiyatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Insonparvarlik, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, ularni asrab - avaylash bilan birga yangi zamon talablariga mos ravishda takomillashtirib borish-taraqqiyot mezoni, milliy ravnaq asosi. Bunday ruhiyatdagi odam hech qachon birovga tazyiq qilmaydi, shafqatsizlik va zo‘ravonlik kabi g‘ayriinsoniy illatlarga hamisha nafrat bilan qaraydi. O‘z tabiatiga mos ravishda bag‘rikeng va muruvvatli bo‘ladi. Bugungi kunda mamlakatning taraqqiyoti va barqarorligi nafaqat iqtisodiy yoki siyosiy omillarga, balki jamiyatning har bir a’zosining ma’naviy qiyofasi va insoniy fazilatlariga bevosita bog‘liqdir. Hayotimizni farovon qilish, turmush darajasini oshirish, dunyoni go‘zal va insonlarni baxtli ko‘rish uchun har bir alohida shaxsning ezgu fazilatlar egasi bo‘lishi shartdir. Chunki faqat ma’naviy kamolotga erishgan, axloqiy va madaniy jihatdan yetuk shaxslar jamiyatni rivojlantirish va unga ijobiy ta’sir ko‘rsatish qobiliyatiga ega bo‘ladilar.

Shuning uchun ta’lim-tarbiya jarayoni insonparvarlik va shukronalik ruhida tashkil etilishi nihoyatda muhimdir. Ta’lim nafaqat bilim berish, balki tarbiyalanuvchida axloqiy va ma’naviy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Tarbiyalanuvchi hayotiy tajribalarni o‘rganib, oqilona qaror qabul qilishni, boshqalar bilan hurmat va mehr bilan munosabatda bo‘lishni, o‘zining ijtimoiy mas’uliyatini anglashni o‘rganishi kerak. Shu tariqa, har bir inson o‘z hayotini ma’naviy boy va ijobiy yo‘naltirilgan tarzda kechiradi, jamiyat esa butun bir tizim sifatida yuksaladi.

Bundan tashqari, ta’lim-tarbiya jarayoni tarbiyalanuvchining o‘qish va ma’naviy o‘sish jarayonini imkon qadar qisqa muddatda samarali tashkil etishga yo‘naltirilishi kerak. Bu esa nafaqat shaxsning bilim va ko‘nikmalarini tezda rivojlantirishga, balki uning ruhiy va axloqiy kamolotini mustahkamlashga xizmat

qiladi. Ta’lim jarayonida shukronalik va insonparvarlik qadriyatlari asos qilib olinganida, tarbiyalanuvchi jamiyatga foydali, axloqiy yetuk va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanadi.

Shunday qilib, mamlakat taraqqiyoti va jamiyat farovonligi har bir fuqaroning ma’naviy qiyofasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayoni insonparvarlik, shukronalik va oqilona yondashuv asosida olib borilganda, bu maqsadlarga erishish ancha osonlashadi va jamiyatning umumiy farovonligi ta’minlanadi.

Xozirda yoshlarni Vatanga bo‘lgan shukronalik ruxida tarbiyalash nihoyatda serqirra, murakkab va mas’uliyatli vazifalardan biridir. Vatanni sevish, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda uchun biz yoshlarimizni ona-Vatanga muhabbat, tariximizga, muqaddas dinimizga sadoqat ruhida, bag‘rikeng qilib tarbiyalash uchun, mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, ularda odamiylikni mustahkamlash lozim. Odamiylik-bag‘rikenglikning muhim shartlaridan bo‘lib, jamiyat a’zolariga nisbatan hurmat, ishonch, sof qalblik, samimiylik, kamtarlik, poklik, shukronalik kabi fazilatlarini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, ulug‘ ajdodlarimizning o‘tmishida jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga qo‘shgan ma’naviyatini o‘rganish, “ota-bobolarimizning ongu tafakkurida asrlar, ming yillar davomida shakllanib, sayqal topgan or-nomus, uyat-andisha, sharmu-hayo, ibo va iffat kabi yuksak axloqiy tuyg‘u va tushunchalari orqali bag‘rikeng qilib tarbiyalash biz ziyolilarning asosiy burchimizdir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev, Sh. Yangi O‘zbekiston ma’naviy taraqqiyoti yo‘nalishlari. Toshkent, 2021.
2. Qodirov, O. Shaxs va ma’naviyat: falsafiy tahlil. Toshkent, 2020.
3. Наврўзова, Г. (2022). Баҳоуддин Нақшбанднинг “Вуқуфи замоний” тамойили. Фалсафа ва ҳуқуқ Ижтимоий–сиёсий, маънавий-маърифий, фалсафий-ҳуқуқий журнал, 2, 32-34.
4. Наврўзова, Г. Н. (2020). Баҳоуддин Нақшбанд таълимоти Яъқуби Чархий тавсифида. Тафаккур зиёси-илмий услубий журнал, 80-81.
5. Erkayev A. Uchinchi Renessans milliy g’oya sifatida.“Yangi O‘zbekiston”, 2020 yil, 9 sentabr
6. Вахидова, М. Т. (2022). Духовно-нравственное воспитание молодежи узбекистан в контексте толерантности. innovative development in the global science, 1(7), 82-90.
7. Vohidova, M. (2023). Social and ethical aspects of the existence of tolerance in young people. Innovative Development in Educational Activities, 2(6), 559-566.
8. Kakhramonovna, K. S. (2024). The role of spiritual education in the development of the new uzbekistan. journal of international scientific research, 1(3), 84-102.

9. Jahongir, S. (2020). Philosophical views of Umar life. Academicia. An International Multidisciplinary Research Journal.–India, 10(4), 360-364.
10. Shodiev, J. J. (2020). Interpretation of moral facts in the opinions of Umar Khayyam. International engineering journal for research & development.-India, 5(3), 143-148.
11. Jurakulovich, S. J. (2022). Attitude to human dignity in the period of amir temur and temurids dynasty. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(5), 43-47.
12. Shodiyev, J. (2021). Jamiyatdagi mehnat munosabatlari sharoitida ma'naviy salohiyat. Журнал истории и общества, (2)
13. JJ Shodiev. A step towards human dignity. golden brain 1 (24), 59-67.
14. Jo‘raqulovich, S. J. (2023). O‘zbekiston-inson qadr topgan yurt. sustainability of education, socio-economic science theory, 2(13), 191-197.
15. Jahongir, S. Interpretation of the image of may in the ruba of umar khayyam. Zbiór artykułów naukowych recenzowanych., 126.
16. Jurakulovich, S. J. (2024). The role of spirituality in the implementation of the development strategy of the new uzbekistan. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(11), 307-311.
17. Qakhorova, S. (2023). Philosophical and theoretical teaching of amir khusrav dehlavi. Farg'ona davlat universiteti, (5), 17-17.
18. Negmatovna, N. G. (2021). Khojagon education and the cpecifics of this way. Academicia: An international multidisciplinary research journal, 11(1), 1331-1337.